



TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI



TISU ILMIY TADQIQOTLARI XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL

ISSN 2992-9016

№2/2023

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ILMIY TADQIQOTLARI XABARNOMASI

ВЕСТНИК НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ТУЭС
BULLETIN OF SCIENTIFIC RESEARCH TUES

“TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI ILMIY TADQIQOTLARI XABARNOMASI”
ILMIY-USLUBIY JURNALI

№ 2/2023

ISSN 2992-9016



Muassis:

TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi
Ilmiy-uslubiy jurnal

Bosh muharrir:

Sattorov Abdusamat
Umurqulovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Qobulov Eshbolta Atamuratovich

Mas'ul kotib:

Allamuratov Shuxrat Ashurovich

Dizayner:

Meyliqulov Shahboz
Xolmamatovich

Jurnal har chorakda bir marotaba
chop etiladi

Jurnal O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligining
2023-yil 1-martdagi
№ 066379- raqamli guvohnomasi
bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal "PRINTWELL" MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri
Muqimiy ko'chasi, 170/14

Bosishga ruxsat etildi:

___. 2023.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8
"Times New Roman" garnituruasi.
Ofset bosma.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 11.

Adadi ___ nusxa.

Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma № _.

Jurnalning elektron shakli bilan
<https://tisu.uz/>
web saytida tanishish mumkin.

Tahririyat manzili:

Surxondaryo viloyati,
Termiz sh., "Bog'ishamol" MFY,
"Farovon" massivi 4b-uy.

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Ixtisham Ul-Haq – i.f.d., prof. (Pokiston)
L. Narrada Gamage – i.f.d., prof. (Shri Lanka)
Vohidov Sh.X. – t.f.d., prof. (Tojikiston)
Xudoyqulov S.K. – i.f.d., prof.
Jo'rayev A.S. – i.f.d., prof.
Hatamov O.Q. – i.f.d., prof.
Tursunov S.N. – t.f.d., prof.
Xoliqova R.E. – t.f.d., prof.
Eshov B.J. – t.f.d., prof.
Mirsabirov M. – f.-m.f.d., prof.
Allakov I. – f.-m.f.d., prof.
Turayev E.Yu. – f.-m.f.d., prof.
Turayev X.X. – k.f.d., prof.
Qulmamatov D. – f.f.d., prof.
Bakirov P.U. – f.f.d., prof.
Raximov G'.X. – f.f.d., prof.
Umurqulov B. – f.f.d., prof.
Mahmudov Yu.G'. – p.f.d., prof.
Qodirov U.D. – psix.f.d., prof.
Otamurodov F.A. – tib.f.d., dots.
Shaydullayev Sh.B. – t.f.d., dots.
Otamurodov Sh.N. – i.f.d., dots.
Eshqurbonov F.B. – k.f.d., dots.
Tursunov N.N. – t.f.d., dots.
Xayrullayev I.N. – f.-m.f.n., dots.
Rasulov H.M. – s.f.n., dots.
Yormatov F.J. – t.f.n., dots.
Mamadjanova T.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.
Eshkarayev S.Ch. – k.f.f.d. (PhD)
Bazarov S.B. – f.f.f.d. (PhD)
Sattorova Ye.A. – f.f.f.d. (PhD)
Eshkurbanov S.B. – t.f.f.d. (PhD)
Saloxitdinova N.M. – p.f.f.d. (PhD)
Turayev Z.N. – i.f.f.d. (PhD)
Babamuratov B.E. – t.f.f.d. (PhD) dots

MUNDARIJA

TARIX FANLARI

VOHIDOV SH.H.

Buxorodagi Mirzo Ulug'bek madrasasi kutubxonasi tarkibining shakllanishiga doir (ilm va ma'rifat maskanlari tarixidan).....4

XAITOV SH.A., AHMADOV A.A.

XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi turkmanlar etnografiyasiga oid ayrim ma'lumotlar sharqshunos D.N.Logofet talqinida.....12

ABDULLAYEV M.G'.

O'zbekistonda surgun qilingan "quloq" xo'jaliklari mehnat faoliyatini tashkil etish masalalari.....18

XOLMANOVA F.U.

Oziq-ovqat sanoati tarmoqlarida qishloq xo'jaligi xom ashyo resurslarini qayta ishlash masalalari.....25

IQTISODIYOT FANLARI

МАСЛЮКОВА Е., АЛЛАЯРОВ П.

Методология нарративного институционального анализа национальных инновационных систем.....33

XUDOYQULOV S.K., ISMATOV X.B.

O'zbekistonda soliq siyosati strategiyasi va taktik yo'nalishlarini takomillashtirish masalalari.....37

PARDAYEV J.M.

Xizmatlar sohasining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari.....47

МАХМУДОВ N., AZIMOVA L.

«Yashil» iqtisodiyot asosida iqtisodiy o'sishni ta'minlash.....53

OTAMURODOV SH.N.,

ESHQULOVA N.N.

«Yashil» iqtisodiyot asosida iqtisodiy o'sishni ta'minlash.....57

TURAYEV Z.N.

Ziyorat turizmi evolyutsiyasi va zamonaviy xususiyatlari....64

YARMATOV SH.CH.

Inson kapitali innovatsion iqtisodiyotni rivojlanishining muhim omili.....70

NORMURODOV A.A.

Erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirishda xalqaro marketing strategiyalaridan foydalanish.....76

PARDAYEV M.M.

Surxondaryo viloyatida suv resurslarini boshqarishni rivojlantirishda investitsion loyihalar (tarix va tahlil).....83

FALSAFA FANLARI

TURABOVA S.K.

Talabalarning eristik kompetentligini rivojlantirishda ilg'or xorij tajribalarini implementatsiya qilish imkoniyatlari.....89

TESHABOYEV A.

Mahalla instituti rivojlanishining ijtimoiy-falsafiy tahlili.....94

ATAKULOV M.S.

Oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirishning tarixiy, ma'naviy-axloqiy asoslari.....100

FILOLOGIYA FANLARI

БАКИРОВ П.У.

Прославление достоинства человека в пословичных единицах.....104

AMIRKULOVA Z.M.

Tarixiy hikoyada Bobur obrazining ifodalinishi.....111

MADIYEVA M.YU.

Olamning lisoniy manzarasida Brend nomi-natsiyasi mohiyati.....117

ESANOV A.M.

Bolalar o'yin folklori tabiati va ularning badiiy xususiyatlari.....122

ХОНОВА Д.Б.

Теоретические аспекты исследования эволюции и этимологии значения терминов родства как отражение наследия института семьи в русском языке (на материале лексикографических источников).....127

ALLAMURATOVA X.

O'zbek antoponimikasida kontaminatsion nomlar...131

PEDAGOGIKA FANLARI

AVLIYAQULOV T.X.

Mehnat va kasbiy tayyorgarlik tizimi.....136

XAYRULLAYEV I.N., BOBOMURODOV U.E.

Matematikani o'qitishda ta'lim jarayonining maqsadini to'g'ri aniqlash va belgilashning asosiy omillari haqida.....140

УСМОНОВ М.К.

Распределение тренировочных нагрузок в годичном цикле подготовки высококвалифицированных боксеров.....145

BADALOV D.A.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tafakkurini shakllantirish usullari.....152

BABAYEVA M.A.

Kompetensiyaviy yondashuvda fanlararo aloqadorlikning ahamiyati.....156

XAITOV A.A.

Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsiyani shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar ning mazmuni va mohiyati.....164

TIBBIYOT FANLARI

BABAMURATOV B.E., BOYQOBILOV S.SH., MAMATKULOVA D.Z.

Tibbiyotda ishlatiladigan bioparchalanuvchi plyonkalar olishda selluloza karbamatidan foydalanish.....169

KENJAYEV Y.M.

"BIO EKO TEXNO" ma'suliyati cheklangan jamiyatga qarashli maishiy chiqindilarni saralash va qayta ishlash korxonasi xodimlarining salomatligi.....172

TOSHPO'LATOV T.A., NORMAMATOVA D.B.

Xanthium-Strumarium-I o'simligi tarkibidan dorivor moddalarni ajratib olish va ularning farmakologik xususiyatlari.....177

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

XO'JAMBERDIYEVA J.N., HAQBERDIYEVA I.O.

Radiatsiyaviy nurlanish ta'siri va uning muammolari.....181

PSIXOLOGIYA FANLARI

URAZBAEVA D.A.

Psixosomatik kasalliklarda bemorlar bilan psixologik tadbirlar olib borish zarurati.....189

LATIPOVA U.YU.

Talabalarda ijodiy faollik motivatsiyasi namoyon bo'lishining psixologik mezonlari.....193

JUMANIYAZOVA I.K.

Insult o'tkazgan bemorlarning hayot sifatining psixologik tahlili.....196

NORBOSHEVA M.A.

Maktabgacha yosh davrida muloqot faolligini rivojlantirish: psixodiagnostika va psixokorreksiya.....201

SIYOSIY FANLAR

RASULOV H.M.

Huquqiy madaniyatni yuksaltirish – ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning muhim omili sifatida.....212



“TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi” ilmiy-uslubiy jurnali

<https://lib.tisu.uz>
ISSN 2992-9016

Xaitov Shadmon Axmadovich. tarix fanlari doktori, professor, Buxoro davlat universiteti;
Ahmadov Ahmadjon Asror o'g'li, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Buxoro davlat universiteti

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDAGI TURKMANLAR ETNOGRAFIYASIGA OID AYRIM MA'LUMOTLAR SHARQSHUNOS D.N.LOGOFET TALQINIDA

Annotatsiya. Mazkur maqolada Turkiston general-gubernatorligining Kaspiyorti viloyati va rus-fors (Eron) chegarasi hududidagi turkman qabilalarining mashg'uloti asosida bayon etilgan. Bundan tashqari sharqshunos olim turkman qaroqchilari, ularning maishiy-moddiy hayoti, qaroqchilardan himoyalaniş choralari haqidagi masalalar imkon qadar tahlil etilgan.

Kalit soʻzlar: Krasnovodsk qalʼasi, Chelekin oroli, Chikishlar oroli, baliqchilik, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq, oʻtroq aholi, koʻchmanchilik, savdo yoʻli, turkmanlar, ovul.

НЕКОТОРЫЕ СВЕДЕНИЯ ПО ЭТНОГРАФИИ ТУРКМЕНОВ В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВЕКА В ИНТЕРПРЕТАЦИИ ВОСТОКОВЕДА Д.Н.ЛОГОФЕТА

Аннотация. В данной статье рассказывается о подготовке туркменских племен в районе Каспийорги Туркестанской губернии и на русско-персидской (иранской) границе. Кроме того, ученый-востоковед максимально подробно проанализировал вопросы туркменских пиратов, их бытовую и финансовую жизнь, меры защиты от пиратов.

Ключевые слова: Красноводская крепость, остров Челекин, остров Чикишлар, рыболовство, скотоводство, земледелие, ремесла, торговля, оседлое население, кочевничество, торговый путь, туркмены, аул.

SOME INFORMATION ON THE ETHNOGRAPHY OF THE TURKMEN AT THE END OF THE 19TH - BEGINNING OF THE 20TH CENTURY IN THE INTERPRETATION OF THE ORIENTALIST D.N.LOGOFET

Abstract. This article describes the training of the Turkmen tribes in the Kaspiyorti region of the Turkestan Governorate and the Russian-Persian (Iranian) border. In addition, the orientalist scientist has analyzed as much as possible the issues of Turkmen pirates, their household and financial life, and measures to protect against pirates.

Key words: Krasnovodsk fortress, Chelekin island, Chikishlar island, fishing, cattle breeding, agriculture, crafts, trade, settled population, nomadism, trade route, Turkmens, aul.

Kirish

Rossiya imperiyasining harbiy xizmatchisi, polkovnik, Imperiya rus geografiya jamiyatining haqiqiy aʼzosi, sharqshunos olim D.N.Logofet oʻz xotiralari va shaxsan guvoh boʻlgan voqealari haqida bir qator kitoblar, maqolalar yozib qoldirdi. Ayniqsa, uning “Oʻrta Osiyo chegaralarida: yoʻl ocherklari” [1,2,3] nomli uch kitobdan iborat asari biz yashayotgan mintaqaning XIX asr oxiri – XX asr boshlari haqida boy va qiziqarli maʼlumotlar taqdim etadi.

Muallifning birinchi kitobi “Fors chegarasi” deb nomlanib, unda asosan Kaspiyorti viloyatidagi aholi markazlari, qalʼa va shaharlari chegara hududlaridagi turkman ovullari, turkman qabilalari hamda ular xoʻjaligi, kundalik maishiy turmushi haqida

shaxsiy xotiralari, koʻrgan-bilganlari asosida fikr-mulohazalar bildirgan.

Tahlil va natijalar

D.N.Logofet turkman qabilalari haqida maʼlumot toʻplash uchun quruqlik transport vositalaridan ot, xachir, eshak, suv transporti hisoblangan kema, qayiq hamda temir yoʻl transporti orqali ming kilometrdan ortiq masofani kezib chiqqan. Ayrim tabiati noqulay (togʻ va jarliklar) joylardan yayov oʻtishga toʻgʻri kelgan. Unga fotograf, tibbiyot xodimi (vrach), bir qator yoʻl koʻrsatuvchilar hamkorlik qilishgan.

Sharqshunos olimning kitobini varaqlar ekanmiz, turkmanlarning 30 ta qabila va urugʻ jamoalaridan katta qismi koʻchmanchi hayot tarzida istiqomat qilishini qayd etadi. Gyurgen va Qorasu chegara rayonlarida yovmut, oqomaboy, jafarboy qabilalari istiqomat qilib, ular koʻchmanchi chorvador boʻlishgan. Chorva mollari bilan bu qabillar Rossiya hududi va Fors (Eron) chegara rayonlari boʻylab yaylovlarda qoʻy, echki, qoramol, otlarini boqishgan. Eron tomoni ularga boj soligʻini solganida 600 nafar qoʻshin toʻplab harbiy toʻqnashuvga bir baxya qolgan [1, C.118-119]. Turkman choʻllarida sanoqli boʻlgan turkman chorvadorlari aholi nisbatan zich yashaydigan hududlardan 200 km, temir yoʻldan 500 km gacha yiroqda boʻlishgan.

Turkmanlar shu qadar tarqoq yashaganki, ayrim qalʼa va qasirlar ularning atigi 2-3 ta oʻtovi boʻlgan. Oz sonli boʻlgan qora qalʼa va qayna qasrida 3 ta turkman oʻtovi boʻlib, ularda yashovchi oilalar chorvachilik bilan birga joʻxori, bugʻdoy, tarvuz, ekib dehqonchilik ham qilganlar [1, C.115]. Turkman qabilalari xoʻjaligida hunarmandchilik eng muhim mashgʻuloti boʻlib, avval koʻp sonli qoʻy va echkilar boqilib, ular shundan olingan movut asosida toʻqimachilik rivojlangan. Toʻqimachilikning gilamdoʻzlik sohasida turkman hunarmandlari Sharq va Gʻarbda tanilgandi. D.N.Logofet “turkman

Turkman qabilalari orasida oʻtroqlashuv jarayoni kechayotganligi, hatto Chandirdaryo boʻylarida bugʻdoy, arpa, oq joʻxori, makka joʻxori, hatto paxta ekilib, dehqonchilik bilan shugʻullanishgan. D.N.Logofet “Ayrim joylarda shunday dalalar borki, churek noni uchun bugʻdoy, joʻxori, rosh, suli, guruch, poliz ekinlaridan tarvuz, qovun, yetishtirishadi. Biroq, mirishkor dehqonchilik qilinadigan yerlarda qurgʻoqchilik tufayli hosilsizlik boʻladi. Dehqonlar dengiz sathidan 3000 metr balandlikda ekin yeri tanlanadi, bunday yerlarda yomgʻir yogʻib turadi, quyosh ekinni kuydirmaydi, qamishzorlarda yovvoyi hayvonlarni ovlash mumkin” [1, C.121]– deb yozgan.

hunarmandlari toʻqigan gilamlar yagona nom bilan “Tekinlar gilami” deyiladi, aslida ularning 4 ta turi bor: Axalsk, Marv, Yomud, Pendin, ayniqsa, jigarrang gilamlar bozori Osiyo mamlakatlarida bozori chaqqon edi. Ularning gilamlari oʻsimlik boʻyogʻi bilan boʻyalgani uchun oʻz shakli va sifatini uzoq vaqt saqlaydi. Qirmizi va oq rangli gilamlar narxi baland boʻlib 1 kv arshini 10 rubl, pendin gilamlarini esa – 15 rubl, ular koʻp miqdorda chetga chiqariladi” [1, C.162] deb maʼlumot keltirilgan. D.N.Logofet XX asr boshlarida turkman gilamlariga talab pasayganligini, Kaspiyorti viloyatiga rus sanoati mahsulotlari kirib kelishi bilan kustar hunarmandchilik inqirozi haqida ham oʻz mulohazalarini bildirgan. Turkmanlar orasida qayiqsozlar ham boʻlib, ular turkman tipidagi qayiq (kema)larni yasashgan. Ular yasagan qayiqlar Amudaryoda, Janubiy va Sharqiy Kaspiyortida suzgan. Ular yasagan kemalar Baku-Astrabod-Krasnovodsk yoʻnalishida ham suzgan [1, C.17-19].

Turkmanlar shugʻullanadigan mashgʻulotlardan biri baliqchilik boʻlib, kulas deb atalgan qayiqlarda (300 tagacha) Kaspiy dengizi va Amudaryoga chiqib baliq ovlashini D.N. Logafet qayd etib oʻtgan. Turkmanlar qarmoq va toʻr orqali (ibtidoiy qurollar) qizil baliq, beluga, seld, sevryug, leli va sazan baliqlarini ovlashgan. Eng koʻp seld va beluga baliqlar ovlanib, baʼzan, 50 pudli belugalar ov qilingan. Bir yilda oʻrtacha 25.000 ming dona beluga baligʻi ovlangan. Turkman qabilasi oqsoqollaridan biri D.N.Logofet bilan muloqotda bizda baliq ovlash kamayib, qizil, chistyak va boshqa turdagi baliqlar bizni qirgʻoqdan boshqa qirgʻoqqa ketayapti. Baliqlar Krasnovodskdan 300 chaqirim masofadagi Hasan koʻli tarafga koʻchgan” – deydi [1, C.21-22].

Turkmanlar baliqdan ikra tayyorlashgan. Bu haqda sharqshunos olim “Ikran turkmanlar qilishadi, biroq, ular

tayyorlagan ikraning sifati past, tuzi baland, o'zi achchiq yoxud nordon" deb yozgan [1, C.34-35].

Turkmanlar orasida o'tin tayyorlovchilar, hammol, mardikor, ishchilar bo'lgan. Ular qayrag'och, saksovol, yulg'undan o'tin tayyorlab aravalarda ovul va qal'alar aholisiga keltirib sotgan. D.N.Logofet Kaspiyorti o'rmon hududlarida yong'in tushgan archazorlarni, nuqul kundasi qolgan daraxtlarni ko'rgan. Ularda daraxt va o'simliklar bilan qoplangan maydonlar oz bo'lgan. D.N.Logofet "Mahalliy aholi, ya'ni turkmanlar tabiatga, o'rmonga shavqatsiz munosabatda bo'lishgan. Kuropatkin (harbiy gubernator) o'rmonlarni qo'riqlash, daraxtlarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish haqida qaror qabul qilingan. Shundan so'ng forslarga tegishli hududlarga nisbatan rus hududida o'rmonlar barpo etish kengaygan. 8-10-yil ichida cho'l hududlar daraxt va o'simliklar bilan qoplangan. yong'inlar oldi olingan" – deb fikr bildirgan [1, C.127-128].

Turkmanlar XX asr boshlarida Krasnovodsk, Ashxabod, Marv, Cheleken oroli, Tejendagi sanoat korxonalarini va foydali qazilma konlarida ishchi bo'lib ham ishlashgan. Masalan, Krasnovodskda bir yilda 70 ming pud neft xomashyosi qazib olinib, Cheleken oroli, Pursagel-Sassiq ko'ldagi neft konlari va boshqa konlardan ozokerit, tuz konlarida turkmanlar ishchi bo'lib ishlashgan.

Masalan, Chelekenda 3 ta turkman ovulida 1000 kishi yashab, 50 nafar rus chegarachisi istiqomat qilgan. Bu yerda tuz zaxirasi 30 mln pud bo'lib, mahalliy turkmanlar konda ishlashgan [1, C.11-12].

D.N.Logofet turkman cho'llari bo'ylab sayohat qilar ekan, o't-o'lanlar siyrak bo'lgan bepayon maydonlarda 2-3 ta cho'pon qo'y podalarini boqib yurganligini, ular atrofida O'rta Osiyo ovcharkasi (bo'ribosar) itlar boqqanini kuzatgan. U turkmanlar orasida qora dori (opium) chekish mavjudligini Fors

Turkmanlar mashg'ulot turlaridan biri garchi keng tarqalmagan bo'lsada ovchilik ham bo'lgan. Turkmanlarning "Qulonlarni (eshak gavdali yovvoyi otlar) turkmanlar ovlaydilar, ularning terisi yorqin, bozorda 10 rubldan 20 rublgacha baholanadi. Qulonning bo'yi 1 arshin 15 verst, charchamas, chaqqon, uzoq masofani dam olmay bosadi, men ularni 300-500 qadam naridan ko'rdim, oltindek tovlanuvchi terisi va qora tasma belbog'i bor. Yasavul ma'lumoticha qulonlarni rus zobitlari ham ovlagan. Turkmanlar yo'lbars ham ovlashgan, uning terisini 25 rubldan 50 rublgacha, ayrim yiriklarini 100 rublgacha sotishgan [1, C.241].

qoradorisi va rus arog'i mahalliy aholini jismonan hamda ma'nadan xarob qilayotganligini o'tinch bilan ta'kidlaydi. Bu illatlarga hech kim qat'iy chora ko'rmaydi, kimlardir bundan manfaatdor degan xulosaga keladi. D.N.Logofet turkman qabilalari o'rtasidagi dushmanlik, raqobat va arzimagan masalalardagi janjallarni qoralaydi.

Kaspiyortidagi vijdonli harbiy zobitlardan biri o'z xatida: "Qishi yo'q kishilar muzlaydi, suv yo'q odamlar cho'kadi, urush yo'q poruchiklar qal'alarni zabt etadi, qanday ayanchli holat" – deb aholi orasida illatlar tarqalishni baholaganligi D.N.Logofet tomonidan alohida ko'rsatilgan [1, C.242].

Turkman qabilalari orasida savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchilar ham mavjud bo'lib, ular rus-fors, rus-afg'on savdosida vositachilik qilishgan. Kaspiyortiga kontrabanda yo'li bilan yuritiladigan qora dori, ingliz choyi va manufaktura tovarlari haqidagi ma'lumotlar ham D.N.Logofet nazaridan chetda qolmagan.

D.N.Logofet (uning kitoblari muqovasida ism-sharifi yuqoridagicha qayd etilgan) Rossiya imperator Rus geografiya jamiyatining haqiqiy a'zosi, rus armiyasi chegira qo'shinlari qo'shinlari harbiy xizmati polkovnigi, Sharqiy Buxoro-Afg'oniston chegarasida xizmat qilgan, 10 yildan ortiq Buxoro amirligida istiqomat qilgan, sharqshunos olim hisoblanadi. D.N.Logofet Buxoro amirligi, Turkiston general-gubernatorligi viloyatlari hamda Xiva xonligida istiqomat qilgan tubjoy o'zbek, tojik, turkman, qirg'iz va qozoq xalqlarining urf-odatlarini, maishiy kundalik

turmushi, xo'jaligi, madaniyati, ta'lim tizimi, tillaridan yaxshigina xabardor bo'lgan.

Harbiy xizmat davomida D.N.Logofet Buxoro amirligi hududlarini o'rgangan, uzoq masofalarga cho'zilgan Buxoro-afg'on, rus-afg'on, rus-fors chegaralari bo'ylab goh otda, goh tuyada, goh piyoda kezib chiqqan. Ko'pgina tarixiy voqe'larga shaxsan guvoh bo'lgan sharqshunos olim, tubjoy aholi vakillari bilan muloqotlar qilgan, sayohatida yo'l ko'rsatuvchilarni o'ziga hamroh qilib olgan. D.N.Logofet Turkiston o'lkasi va Buxoro amirligidagi har bir shahar, posyolka, ovul, qishloq aholining etnik tarkibi, o'troq va ko'chmanchi tarzidagi hayoti, mashg'uloti o'tmish tarixi haqida ham kitoblarida qiziqarli lavhalar keltirgan. Turkiston foydali qazilmalari, ularni qazib olish texnikasi hamda qayta ishlov berish texnologiyasi to'g'risidagi ma'lumotlari ham e'tiborga loyiq. Uning tomonidan yozib keltirilgan asarlar XIX asr oxiri – XX asr dastlabki o'n yilligida Turkiston va Buxoro tarixini o'rganishda muhim manba hisoblanadi [1,2,3,4,5,6,7]. Bundan tashqari sharqshunos oliming rus davriy matbuoti va Turkiston to'plami (Туркестанский сборник) da ham bir qator maqolalari bosildiki, ularda Buxoro amirligidagi savdo-sotiq ijtimoiy muammolar haqida fikrlar mulohazalar bildirilgan [8,9].

Rossiyalik tadqiqotchi S.N.Brejneva D.N.Logofetning "Huquqsizlik mamlakati. Buxoro xonligi va uning hozirgi holati" nomli kitobi chop etilganining 100 yillik munosabati bilan o'zining ilmiy maqolasini chop ettirdi [10]. Ushbu maqolada Buxoro amirligining Rossiya protektorati davri tarixini o'rganishda 1868 va 1873-yillardagi Rossiya-Buxoro noteng shartnomalari va undan keyingi voqe'larni teran anglashda D.N.Logofet asarlari qimmatli manba ekanligi tahlil qilingan.

Rossiya imperiyasi Buxoro amirligi va Xiva xonligini protektoratga aylantirganidan so'ng (1873-yil) tuzilgan shartnomalarda qul savdosini taqiqlash bilan bog'liq alohida modda kiritilgan edi. Amalda amirlik va xonlikda asrlar davomida qul savdosi mavjud bo'lib, qulchilik munosabatlari ancha yillar yashab keldi. Rizoqulixon Hidoyat "Safrotnomayi Xorazm" xotiranomasida keltirishicha: "Anglashimizcha shu kunlarda (1851-yil yozi) Eronning askar va fuqarosidan 50 mingdan ortig'i Xivaq davlatiga

qarashli bu o'lkada asir va qul ekanlar. Xullas, shu huzurimdagi yig'inda bir-biri bilan qarindosh, amakivachcha va hatto, aka-ukalar bo'la turib, Xorazmda uzoq yillar davomida tutqunlikda yashagancha bundan xabar topmagan Eronlik qullar borligi ham ma'lum bo'ldi [11, B.119].

Yuqoridagi ma'lumotlarni keltirishdan maqsad, sharqshunos D.N.Logofet "O'рта Osiyo chegaralarida: yo'ldagi yozishmalar" nomli 3 kitobdan iborat asarining "Fors chegarasi" nomli 1-kitobida turkman qaroqchilari tomonidan karvonlarni talash, tinch aholi ustiga favqulotda harbiy yurishlar qilib, erkak, xotin-qiz va bolalarni asir qilib, oxir-oqibatda o'zga mamlakatlarda qul qilib sotish bilan bog'liq jihatlarga e'tiborni qaratishdir [1].

Turkiston general-gubernatorligi Kaspiyorti viloyati Rus-Eron (Fors) chegaralari uzoq masofalarga cho'zilgani, ko'pgina chegara chiziqlarining bo'sh qo'riqlanishi, ayrim hududlar hatto, qo'riqlanmasligi, harbiy postlar bir-biridan 300-500 metr, 500-1000 metr oraliqda joylashgani bilan ajralib turgan. Kaspiyortida aholi siyrak bo'lib, ishchi kuchiga talab katta bo'lgan. Viloyatda ko'chirilgan rus aholi posyolkalari ham chegara rayonlarda joylashgan bo'lib, viloyatdagi 30 ortiq turkman qabilalari ovullari aholisi asosan ko'chmanchi va yarim o'troq holda umrguzaronlik qilgan.

Kaspiyoti viloyati uyezd va shaharlarida aholi asosan ko'chmanchi chorvachilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq qisman dehqonchilik bilan shug'ullangan. D.N.Logofet Rossiya-Eron chegarasi bo'ylab joylashgan turkman qabila va urug'lari haqida ma'lumot berar ekan, bevosita savdo karvonlariga hujum qilib, tinch aholi mol-mulkini talab kun kechiradigan turkman qaroqchilari haqida ma'lumot beradi. U turkmanlarda qaroqchilar to'dasi katta va kichik guruhlardan iborat bo'lib, kichik guruhlarda 40-50 ta qaroqchi, katta guruhlarda 500 tadan 1000 tagacha kishilarni

birlashtiradi, deb ko'rsatgan. Qaroqchilar savdo karvonlari Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Afg'oniston, Eron davlatlariga tegishli bo'lishidan qat'iy nazar ularga bosqin uyushtirgan. Karvonlarni ko'pincha 30 talik harbiy otryad kuzatib borgan. Karvonboshilar qudratli bo'lgan taqdirda 3 ta zobit 70 tagacha kichik harbiy unvonli otryadni xizmatga yo'llay olgan. Qaroqchilar bunday karvonlarga ko'p sonli bo'lib ovloq cho'l, dasht hududlarida hujum qilganlar [1, C.75-76].

D.N.Logofet turkman qaroqchilari uchun qurol-yarog', o'q-dori va patronlar muammo bo'lmay, ularda zamonaviy qurollardan Berdyanka, Beringel vintovkalari, revolver, sovuq qurollardan qilich, xanjar kabilar ko'p bo'lgan. Karvonlarni talash orqali o'lja olingan qurollar va patronlar qaroqchilar omborida jamg'arib qo'yilgan. Karvonlarga qaroqchilar hujumi uyushtirilgan paytlarda ishchi hayvonlari (tuya, ot, xachir) va karvon egalari halok bo'lardi. D.N.Logofetning yozishicha, shunday to'qnashuvlardan birida 40 kishi halok bo'lgan, 220 tuya o'ldirilgan, karvondagi tovarlar talangan, 3000 pud choy, katta partiyada qurol va patron o'lja qilingan. Qaroqchilar tezda boyib ketishiga qaramay, qaroqchilar asirga olingan karvon a'zolarini birma-bir saf tortirib tekshiruv va ko'rikdan o'tkazishdan. Asirlarning cho'ntaklari va kiyimlaridagi qimmatbaho buyumlar, oltin, kumush tangalarni olib, o'zaro bo'lib olishardi. Karvondan asir olinganlarni qul qilib sotib yuborishgan [1, C.77-78].

Turkmanlarning yovmut, emrali, sariq kabi qabilalari sardorlari qaroqchilar to'dasini tuzishga bevosita rahbarlik qilganlar. Ayrim sardorlar 3-4 ming kishilik guruh tuzib, Fors (Eron) ovullariga bosqinlar qilganlar. Ular chaqindek paydo bo'lib tuya va otlarni, qo'y va echkilarni, odamlarni, asir olgan. Asirlar asosan Eron, Marv, Afg'onistonga qul qilib sotilgan, rus asirlari esa Xiva xonligiga sotilgan. Qaroqchilar qullarni 1900-yillarda Rossiya puli bilan 25-30 rublga pullashgan

Ma'lumki XIX asr 40-50-yillarida Buxoro amirligi va Xiva xonliklarida qul bozorlari mavjud bo'lib, urushlarda asir olinganlar qul sifatida sotilgan. Erondan Xiva xonligiga elchi bo'lib kelgan Muhammad Alixon G'ofur (1842-yil) va Rizoqulixon Hidoyat (1851-yil) o'zlarining "Xorazm safari kundaligi" va "Safarotnomayi Xorazm" asarlarida, shuningdek, Mak Gahan, Bayoniy ma'lumotlarida Xiva xonligidagi fors asirlari soni 30 ming kishidan ortiq bo'lgan. Bundan tashqari xonlik saroyida Buxoro, afg'on, rus asirlari ham saqlanib, ular hukumatlari tomonidan sotib olinmasa qul sifatida bozorda sotib yuborilgan.

[1, C.105].

D.N.Logofet qaroqchilar qasamyodi haqida ham ma'lumot berib o'tgan. Ular belgilangan va kelishilgan joyda uchrashib, ziyofatdan so'ng Sardor rahbarligida chuqurligi 1 arshin (71-72 sm) xandaq qazib, uni ichimlik suvi bilan to'ldiradilar. Qaroqchi bo'lishni ahd qilganlar chuqurlikdagi suvdan birma-bir ichib, hayotda o'limgacha ajralmaslikka, bir-birlariga sadoqat qilishga, qasamyodga xiyonat qilmaslikka ont ichganlar. Qasamyod marosimi tugaganidan so'ng, suvga to'ldirilgan xandaqcha ko'milgan va uning joylashgan yeri maxsus belgi bilan belgilab qo'yilgan [1, C.107-108].

Karvon savdosi to'xtagan, hukumatning bu boradagi chora-tadbirlari kuchaygan paytlarda qaroqchilar "ishsiz" qolmaslik paytida barsuk, yo'lbars, gepard, yovvoyi mushuklar, yovvoyi arxar, kiyik, buqa, turli parrandalar oviga chiqishgan. Ular arman, yahudiy qurol savdogarlaridan arzon narxlarda sotib olgan Berdanka, Beringel multiplarini, omborlarida saqlangan qurol-yarog' hamda patronlarni bir qismini sotishgan. XX asr boshlarida Berdanka multiplari Kaspiyortida 100 rubldan 200 rublgacha, tez otar multiplar 300 rubldan 400 rublgacha sotilgan [1, C.106-108]. D.N.Logofet qaroqchilarga qarshi kurashib, karvonlar xavfsizligini ta'minlashda jasorat ko'rsatgan rus zobit va kichik unvondagi harbiylarga orden hamda medallar berilganini qayd etadi.

U qaroqchilar o'z sardoriga sadoqat ko'rsatishi haqida fikr bildirar ekan, turkman qaroqchi sardorlaridan biri qul Botir Sardor vafot etganida unga yuksak hurmat-ehtirom ko'rsatilganiga e'tiborni qaratgan. Ushbu sardor 3-4 ming kishiga qadar

qaroqchilar to'dasini boshqargan [1, C.110-111].

D.N.Logofet turkman qaroqchilari haqida yozar ekan qaroqchilar uchun asosiy transport vositasi bo'lgan turkman otlari va boshqa ot nasllari haqida ham ma'lumot beradi. Uning yozishicha XX asr boshlarida uchqur otlar narxi savdoda 800-1000 rubl baholangan bo'lib, 1 kunda bunday otlarda 50 chaqirim yurish o'rniga 100 chaqirim masofa bosib o'tilgan. Arab oti bilan Tekin oti chatishtirilib, yangi ot nasli olingan. Bu otlar oyoqlari baquvvat, tez charchamaydigan "Ali dul-duli" deb atalgan. D.N.Logofet XIX asrda avj olgan qaroqchilik, XX asr boshlarida qat'iy taqiqlangani, qaroqchilar foydalanadigan Tekin otlari aravaga qo'shilib yuk tashish vositasi sifatida ishlatilgan [1, C.166-167]. Ashxabod va Bayramalida otxonalar ochilib, turli nasldagi otlar parvarishlangan. Qaroqchilikni tashlagan shaxslar "O'tchilar jamiyati"ga a'zo bo'lib, ot parvarishlar, ot musoboqalarida qatnashishgan.

Xulosa

Xullas, D.N.Logofetning O'rta Osiyo tarixiga oid asarlarida ushbu mintaqadagi ijtimoiy jarayonlar, jumladan, aholini me'yoriy hayoti va faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan qaroqchilik hamda uning fojiali oqibatlarini haqida ham muhim ma'lumotlar keltirilgan. D.N.Logofetning tadqiqotlari, etnosotsial kuzatuv asosida to'plagan ma'lumotlari XIX-XX asr chegarasida Kaspiyorti turkmanlar tarixi va etnografiyasini o'rganishda muhim ilmiy ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Логофет Д.Н. На границах Средней Азии: Путевые очерки в 3-х книгах. Книга 1. Персидская граница. – СПб., 1909. - 245 с.
2. Логофет Д.Н. На границах Средней Азии: Путевые очерки в 3-х книгах. Книга 2. Русско-афганская граница. – СПб., 1909. - 208 с.
3. Логофет Д.Н. На границах Средней Азии: Путевые очерки в 3-х книгах. Книга 3. Бухарско-афганская граница. – СПб., 1909. - 208 с.
4. Логофет Д.Н. Страна безправия. Бухарское ханство и его современное состояние. – СПб.: В.Березовский, 1909. – 239 с.
5. Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. Том I, II. – СПб.:

6. В.Березовский, 1911. – 340. – 354 с.
6. Логофет Д.Н. В забытой стране. Путевые очерки по Средней Азии. – М.: печатня А.И.Снегирева, 1912. – 176 с.
7. Логофет Д.Н. В горах и равнинах Бухары (очерки Средней Азии). — СПб., 1913. – 619 с.
8. Логофет Д.Н. Хлебная торговля и запасы Восточной Бухары // Туркестанский сборник. Том 497. –С.105-107.
9. Логофет Д.Н. Врачебная помощь в Бухаре // Туркестанский курьер (Ташкент). - 1912. - №152.
10. Брежнева С.Н. Бухарской эмират периода протектората России в трудах учиного-востоковеда Д.Н. Логофета / Вестник КГУ (Красноярский государственный университет) им. Н.А. Некрасова. – Красноярск, 2009. -№4. – С.12-17.
11. Хоразм safari kundaliklari. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2009. – 236 b.